

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
rektori _____M.E.Po‘latov
“ _____ ” _____ 2025-yil

Samarqand iqtisodiyot va servis institutida akademik halollik tamoyillari

O‘QUV DASTURI

Annotatsiya

“Institutda akademik halollik tamoyillari” o‘quv dasturi professor-o‘qituvchilar, xodimlar va talabalarda akademik halollik madaniyatini shakllantirish, ta’lim va ilmiy faoliyatda halollik, shaffoflik, xolislik, adolat hamda kasbiy mas’uliyat tamoyillariga rioya etish bo‘yicha zarur bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan.

Dastur mazmunida akademik halollikning asosiy tamoyillari, akademik etika, kasbiy odob-axloq, plagiat va boshqa akademik qoidabuzarliklarning oldini olish, ilmiy manbalardan to‘g‘ri foydalanish, iqtibos keltirish va bibliografiyani rasmiylashtirish qoidalari, baholash jarayonida xolislikni ta’minlash hamda sun’iy intellekt vositalaridan mas’uliyatli foydalanish masalalari yoritilgan. Shuningdek, institutning akademik halollik bo‘yicha ichki me’yoriy hujjatlari, ularning amaliy qo‘llanilishi va akademik qoidabuzarliklarning oldini olish mexanizmlari bilan tanishtirish ham dastur tarkibiga kiritilgan.

Dastur interfaol ma’ruzalar, seminarlar, amaliy mashg‘ulotlar, keys tahlillari va mustaqil ta’lim shakllari orqali amalga oshiriladi. Uni o‘zlashtirish natijasida tinglovchilar akademik halollik tamoyillarini amaliy faoliyatida qo‘llash, ilmiy va o‘quv ishlarini mustaqil hamda vijdonan bajarish, mualliflik huquqlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, akademik qoidabuzarliklarning oldini olish va institutda sog‘lom akademik muhitni rivojlantirish bo‘yicha zarur kompetensiyalarga ega bo‘ladilar. Mazkur dastur ta’lim sifati va ilmiy tadqiqotlar ishonchliligini oshirish hamda institutda akademik madaniyatni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tuzuvchi X.Shakarov - Korrupsiyaga qarshi kurashish
“komplayens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi
boshlig‘i.

Taqrizchilar N.Ochilova – institut yuriskonsulti
A.Azizqulov – ijtimoi fanlar kafedra mudiri.

“Institutda akademik halollik tamoyillari” o‘quv dasturi

Qisqa muddatli o‘quv kursi (malaka oshirish/trening/modul)

Hajmi

Umumiy hajmi: jami 30 soat

- Nazariy mashg‘ulotlar – 12 soat
- Amaliy mashg‘ulotlar – 12 soat
- Mustaqil ta’lim – 6 soat

Kursning maqsadi

Tinglovchilarda akademik halollik madaniyatini shakllantirish, ilmiy va ta’lim faoliyatida halollik, shaffoflik, mas’uliyat, adolat va kasbiy etika tamoyillariga rioya etish ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda akademik qoidabuzarliklarning oldini olish bo‘yicha zarur bilim va kompetensiyalarni hosil qilish.

Kursning vazifalari

- akademik halollik tushunchasi va tamoyillarini o‘rgatish;
- akademik etika va kasbiy mas’uliyat me’yorlarini tushuntirish;
- plagiat va boshqa akademik qoidabuzarliklarni aniqlash hamda oldini olish usullarini o‘rgatish;
- ilmiy manbalardan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- iqtibos keltirish va bibliografiyani rasmiylashtirish qoidalarini o‘rgatish;
- sun’iy intellekt vositalaridan mas’uliyatli foydalanish tamoyillarini yoritish;
- korrupsiyaga qarshi madaniyat va baholashning xolisligini mustahkamlash.

O‘zlashtirish natijalari

Kurs yakunida tinglovchi:

- akademik halollikning mazmuni va tamoyillarini izohlay oladi;
- akademik qoidabuzarlik turlarini farqlaydi;
- plagiat xavfini baholaydi va uning oldini olish choralarini qo‘llaydi;
- ilmiy manbalarga to‘g‘ri havola beradi;
- akademik yozuv talablariga rioya qiladi;
- kasbiy etikaga muvofiq qaror qabul qiladi;
- sun’iy intellekt vositalaridan mas’uliyatli foydalanadi;
- akademik halollik bo‘yicha institut ichki hujjatlariga amal qiladi.

O‘quv modullari

Nazariy mashg‘ulotlar

1-modul. Akademik halollikning nazariy asoslari (4 soat)

1-mavzu “Akademik halollik”

Akademik halollik tushunchasi va uning asosiy mazmuni; Akademik halollikning asosiy tamoyillari; Akademik halollik ta’lim va ilmiy tadqiqotlar sifatiga ta’siri; Akademik halollik va akademik qoidabuzarlik o‘rtasidagi farqlari; Institutda akademik halollik madaniyatini shakllantirishning ahamiyati.

2-mavzu “Akademik qadriyatlar”

Akademik qadriyatlar tushunchasi va ularning asosiy turlari; Halollik, ishonch, adolat, hurmat, mas’uliyat va jasorat akademik faoliyatda namoyon bo’lishi; Akademik qadriyatlar ta’lim jarayonining sifatini oshirishdagi xizmati; Professor-o‘qituvchi va talabaning akademik qadriyatlarga rioya etishdagi mas’uliyati; Akademik qadriyatlarni institut muhitida rivojlantirishning samarali usullari.

3-mavzu “Xalqaro va milliy yondashuvlar”

Akademik halollik bo’yicha xalqaro yondashuvlarning asosiy tamoyillari; O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida akademik halollikni ta’minlash bo’yicha normativ-huquqiy asoslari; Xalqaro tajriba va milliy amaliyotning o‘xshash hamda farqli jihatlari; Akademik halollikni ta’minlashda xalqaro standartlarning ahamiyati; Oliy ta’lim muassasalarida xalqaro tajribani joriy etishning afzalliklari.

4-mavzu “Institutning akademik siyosati”

Institutning akademik siyosati va uning asosiy maqsadi; Akademik siyosatning asosiy tarkibiy qismlari; Institutda akademik halollikni ta’minlovchi ichki me’yoriy hujjatlar vazifalari; Akademik siyosatni amalga oshirishda professor-o‘qituvchilar, xodimlar va talabalarning huquq hamda majburiyatlari; Institutda akademik siyosatga rioya etilishini nazorat qilish va monitoring qilishning tashkil etilishi.

2-modul. Akademik etika va kasbiy mas’uliyat (4 soat)

5-mavzu “Professor-o‘qituvchi etikasi”

Professor-o‘qituvchi etikasi tushunchasi va uning asosiy tamoyillari; Professor-o‘qituvchining ta’lim jarayonidagi kasbiy va axloqiy majburiyatlari; Baholash jarayonida xolislik va shaffoflikni ta’minlashning asosiy talablari; Professor-o‘qituvchining talabalar bilan muloqotida rioya qilinishi lozim bo’lgan etik me’yorlar; Professor-o‘qituvchi faoliyatida manfaatlar to‘qnashuvi va korrupsiyaviy holatlarning oldini olishning amalga oshirilishi.

6-mavzu “Talaba etikasi”

Talaba etikasi tushunchasi va uning asosiy tamoyillari; Talabaning akademik halollik va kasbiy etika sohasidagi huquq hamda majburiyatlari; Ta’lim jarayonida talabaning professor-o‘qituvchilar va boshqa talabalar bilan munosabatlarida etik qoidalarga rioya qilinish zaruriyati; Talabaning mustaqil ta’lim va ilmiy faoliyatida akademik halollik tamoyillari namoyon bo’lishi; Talaba tomonidan akademik etika qoidalarining buzilishi oqibatlariga olib kelish vaziyatlari.

7-mavzu “Ilmiy rahbar va tadqiqotchining mas’uliyati”

Ilmiy rahbar va tadqiqotchining akademik faoliyatdagi asosiy vazifalari; Ilmiy tadqiqotlarda halollik va xolislik tamoyillariga rioya etish muhimligi; Ilmiy rahbarning magistrant, doktorant va tadqiqotchilar oldidagi kasbiy mas’uliyati; Tadqiqot natijalarini e’lon qilishda mualliflik huquqi va hammualliflik qoidalariga amal qilinishi; Ilmiy faoliyatda ma’lumotlarni soxtalashtirish va qalbakilashtirishning oldini olishning ta’minlanishi.

8-mavzu “Manfaatlar to‘qnashuvi”

Manfaatlar to‘qnashuvi tushunchasi va uning asosiy turlari; Ta’lim va ilmiy faoliyatda manfaatlar to‘qnashuvi holatlar yuzaga kelishi; Manfaatlar to‘qnashuvi akademik halollik va qarorlar xolisligiga ta’siri; Manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash va oldini olishning samarali mexanizmlari; Professor-o‘qituvchilar, xodimlar va talabalar manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelganda harakat qilish tartiblari.

3-modul. Akademik qoidabuzarliklar (8 soat)

9-mavzu “Plagiat”

Plagiat tushunchasi va uning asosiy belgilari; Plagiatning turlari va ular bir-biridan farqlanishi; Ilmiy va o‘quv ishlarida plagiatga yo‘l qo‘ymaslikning asosiy usullari; Mualliflik huquqi va plagiat o‘rtasidagi bog‘liqlik; Plagiat aniqlanganda oliy ta’lim muassasasida choralar qo‘llanilishi.

10-mavzu “O‘z-o‘zini plagiat qilish”

O‘z-o‘zini plagiat qilish (self-plagiarism) tushunchasi; O‘zining avval chop etilgan yoki topshirilgan ishidan qayta foydalanish holatlarida akademik qoidabuzarliklar; O‘z-o‘zini plagiat qilishning ilmiy va akademik faoliyatga salbiy ta’siri; O‘z-o‘zini plagiat qilishning oldini olish uchun qoidalarga rioya qilish tartibi; Qayta foydalanilgan materialni to‘g‘ri rasmiylashtirishning asosiy talablari.

11-mavzu “Ma’lumotlarni soxtalashtirish”

Ma’lumotlarni soxtalashtirish tushunchasi; Tadqiqot jarayonida ma’lumotlarni soxtalashtirishning ko‘rinishlari; Soxtalashtirilgan ma’lumotlar ilmiy tadqiqotlarning ishonchliligiga ta’siri; Ma’lumotlarning haqqoniyligini ta’minlash usullaridan foydalanish tartibi; Ma’lumotlarni soxtalashtirish aniqlanganda akademik va intizomiy choralar qo‘llanilishi.

12-mavzu “Natijalarni qalbakilashtirish”

Natijalarni qalbakilashtirish tushunchasi; Ilmiy tadqiqot natijalarini qalbakilashtirishning asosiy ko‘rinishlari; Natijalarni qalbakilashtirish ilmiy ishonchlilik va akademik obro‘ga ta’siri; Tadqiqot natijalarining haqqoniyligini ta’minlash tamoyillariga amal qilish tartibi; Natijalarni qalbakilashtirish holatlarini aniqlash va oldini olish mexanizmlari.

13-mavzu “Noqonuniy yordam”

Akademik faoliyatda noqonuniy yordam tushunchasi; Mustaqil topshiriqlar va nazorat ishlarini bajarishda noqonuniy yordamning turlari; Noqonuniy yordam akademik halollik tamoyillarining buzilishi; Akademik topshiriqlarni bajarishda ruxsat etilgan va taqiqlangan yordam turlarining farqlanishi; Noqonuniy yordam holatlarining oldini olish profilaktik choralari.

14-mavzu “Imtihonlarda akademik halollik”

Imtihonlarda akademik halollikning asosiy tamoyillari; Imtihon jarayonida akademik qoidabuzarliklarning eng ko‘p uchraydigan turlari; Imtihonlarda nazorat va shaffoflikni ta’minlashning samarali usullari; Imtihon jarayonida talaba va professor-o‘qituvchilarning huquq hamda majburiyatlari; Imtihonlarda akademik halollik qoidalarining buzilishining huquqiy va intizomiy oqibatlarga olib kelishi.

4-modul. Akademik yozuv va manbalar bilan ishlash (6 soat)

15-mavzu “Ilmiy axborotni izlash”

Ilmiy axborot tushunchasi va uning asosiy manbalari; Ishonchli ilmiy manbalarni tanlashda mezonlarga amal qilinishi; Ilmiy ma'lumotlarni elektron kutubxonalar va ilmiy ma'lumotlar bazalaridan izlash usullari; Ilmiy axborotni izlashda kalit so'zlar va qidiruv operatorlaridan foydalanish tartibi; Topilgan ilmiy manbalarning dolzarbligi va ishonchliligini baholash.

16-mavzu “Iqtibos berish usullari”

Iqtibos berishning maqsadi va akademik faoliyatdagi ahamiyati; To'g'ridan-to'g'ri va bilvosita iqtibos berish usullarining bir-biridan farqi; Iqtibos berishda mualliflik huquqi va akademik halollik talablariga rioya qilinishi; Matn ichidagi havolalar va izohlar tartibining rasmiylashtirilishi; Noto'g'ri iqtibos berishning akademik qoidabuzarliklarga olib kelishi.

17-mavzu “Bibliografiyani rasmiylashtirish”

Bibliografiya nima va u ilmiy ishning qaysi qismida keltirilishi; Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini rasmiylashtirishning umumiy qoidalari; Kitoblar, ilmiy maqolalar va elektron manbalarni bibliografik tavsiflash amalga oshirilishi; Xalqaro bibliografik uslublarning (masalan, APA, MLA, Chicago, IEEE va boshqalar) umumiy xususiyatlari; Bibliografiyani noto'g'ri rasmiylashtirishning ilmiy ish sifatiga ta'siri.

18-mavzu “Ilmiy matn tuzilishi”

Ilmiy matnning asosiy tarkibiy qismlari; Kirish, asosiy qism va xulosaning vazifalari; Ilmiy matnni yozishda mantiqiy izchillik va uslubiy yaxlitlikning ta'minlanishi; Jadval, rasm, grafik va formulalardan foydalanishda talablarga rioya qilinishi; Ilmiy matnni tahrirlash va yakuniy tekshirishning asosiy bosqichlari.

5-modul. Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektdan foydalanish (4 soat)

19-mavzu “Sun'iy intellektdan etik foydalanish”

Sun'iy intellektdan etik foydalanish tushunchasi; Ta'lim va ilmiy faoliyatda AI vositalaridan foydalanishning afzalliklari; AI yordamida tayyorlangan materiallardan foydalanishda akademik halollik tamoyillari; Sun'iy intellektdan noto'g'ri foydalanishdagi akademik va etik muammolari; Professor-o'qituvchi va talabalarning AI vositalaridan foydalanishdagi mas'uliyati.

20-mavzu “AI yordamida tayyorlangan materiallarni deklaratsiya qilish”

AI yordamida tayyorlangan materiallarni deklaratsiya qilish zaruriyati; Ayrim hollarda sun'iy intellektdan foydalanilganligini ko'rsatish talabi; AI vositalari yordamida tayyorlangan matn, jadval yoki boshqa materiallarni deklaratsiya qilish tartibi; Deklaratsiya qilinmagan AI materiallari akademik qoidabuzarlik sifatida baholanishi; Institutning ichki akademik siyosatida AI materiallarini deklaratsiya qilish bo'yicha talablari.

21-mavzu “Axborot xavfsizligi”

Axborot xavfsizligi tushunchasi va uning asosiy tamoyillari; Raqamli ta’lim muhitida axborot xavfsizligi tahdidlari uchrashi; Kuchli parol va ikki bosqichli autentifikatsiyaning ahamiyati; Elektron pochta va onlayn platformalardan foydalanishda xavfsizlik qoidalariga rioya qilish zaruriyati; Ilmiy va o‘quv ma’lumotlarini ruxsatsiz kirishdan himoya qilish.

22-mavzu “Shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish”

Shaxsiy ma’lumotlar tushunchasi va ularning asosiy turlari; Shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilishning huquqiy va etik asoslari; Sun’iy intellekt vositalariga ma’lumot yuklashda ehtiyot choralariga amal qilish talablari; Talabalar va xodimlarning shaxsiy ma’lumotlarini qayta ishlashdagi cheklovlar; Shaxsiy ma’lumotlarning oshkor bo‘lishining xavf va oqibatlar.

6-modul. Institutda akademik halollik tizimi (4 soat)

23-mavzu “Ichki me’yoriy hujjatlar”

Institutda akademik halollikni tartibga soluvchi ichki me’yoriy hujjatlar tushunchasi; Akademik halollikka oid nizom, kodeks va yo‘riqnomalarning asosiy maqsadi; Ichki me’yoriy hujjatlarda professor-o‘qituvchilar, xodimlar va talabalar huquq hamda majburiyatlari; Akademik halollik bo‘yicha ichki hujjatlar ta’lim va ilmiy faoliyat sifatini ta’minlash; Ichki me’yoriy hujjatlarni takomillashtirishdagi omillar;

24-mavzu “Akademik halollik komissiyalari”

Akademik halollik komissiyasining asosiy vazifalari; Komissiya tarkibining shakllantirilishi va uning vakolatlari; Akademik qoidabuzarlik holatlarini ko‘rib chiqishda komissiya tomonidan tamoyillarga amal qilishi; Komissiya faoliyatida xolislik, shaffoflik va maxfiylik; Komissiya qarorlarini qabul qilish va rasmiylashtirish tartibi.

25-mavzu “Murojaatlarni ko‘rib chiqish tartibi”

Akademik halollik bilan bog‘liq murojaatlar qabul qilish tartibi; Murojaatlarni ko‘rib chiqishning asosiy bosqichlari; Murojaatlarni ko‘rib chiqishda xolislik va maxfiylikning ta’minlanishi; Akademik qoidabuzarlik yuzasidan tekshiruv o‘tkazishda dalillar va hujjatlar; Murojaatlarni ko‘rib chiqish yakunlari bo‘yicha qarorlar qabul qilinishi.

26-mavzu “Profilaktika ishlari”

Akademik halollik qoidabuzarliklarining oldini olish bo‘yicha profilaktika ishlari; Professor-o‘qituvchilar, xodimlar va talabalar o‘rtasida akademik halollik madaniyatini shakllantirishning samarali usullari; Seminarlar, treninglar va targ‘ibot tadbirlarining akademik halollikni ta’minlashdagi o‘rni; Akademik halollik bo‘yicha profilaktika ishlarining samaradorligi; Institutda akademik halollik tizimini doimiy takomillashtirish uchun chora-tadbirlar amalga oshirilishi.

O'quv modullari

Amaliy mashg'ulotlar

1-modul. Akademik halollikning nazariy asoslari (4 soat)

1-mavzu "Akademik vaziyatlar tahlili"

Topshiriq 1. Plagiat holatini tahlil qilish

Talabaning manba ko'rsatmasdan foydalangan matni misolida akademik halollik tamoyillari buzilgan holatni aniqlash va yechim taklif qilish.

Topshiriq 2. Baholashdagi xolislik

Professor-o'qituvchining baholash jarayonidagi xatti-harakatini tahlil qilish, etik me'yorlarga muvofiqligini baholash va tavsiyalar ishlab chiqish.

Topshiriq 3. Ilmiy tadqiqotdagi halollik

Ilmiy natijalarni o'zgartirish bilan bog'liq vaziyatni tahlil qilish, qoidabuzarlikni aniqlash va uning oqibatlarini izohlash.

Topshiriq 4. Guruh muhokamasi

"Akademik halollik faqat plagiatga yo'l qo'ymaslikdan iborat" mavzusida guruhda fikr almashish va umumiy xulosa tayyorlash.

Topshiriq 5. Keys tahlili

Berilgan akademik vaziyatni tahlil qilib, muammoni aniqlash, yechim variantlarini ishlab chiqish va eng maqbul qarorni asoslash.

2-modul. Akademik etika va kasbiy mas'uliyat (4 soat)

2-mavzu "Etik vaziyatlar muhokamasi"

Topshiriq 1. Professor-o'qituvchi etikasi

Professor-o'qituvchining kasbiy odob-axloq qoidalariga rioya etishi bilan bog'liq vaziyatni tahlil qilish va to'g'ri yechimni asoslash.

Topshiriq 2. Talaba etikasi

Talabaning auditoriyadagi va mustaqil ta'lim jarayonidagi xulq-atvorini akademik etika nuqtai nazaridan baholash.

Topshiriq 3. Ilmiy rahbar va tadqiqotchining mas'uliyati

Ilmiy rahbar hamda tadqiqotchi o'rtasidagi munosabatlarga oid vaziyatni tahlil qilish va kasbiy mas'uliyatni baholash.

Topshiriq 4. Manfaatlar to'qnashuvi

Akademik faoliyatda manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan vaziyatni aniqlash va uni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Topshiriq 5. Guruhli muhokama

Akademik etika va kasbiy mas'uliyatga oid berilgan keysni guruhda muhokama qilish, xulosa va amaliy tavsiyalar tayyorlash.

3-modul. Akademik qoidabuzarliklar (8 soat)

3-mavzu "Plagiat misollar tahlili"

Topshiriq 1. Plagiatni aniqlash

Berilgan matnni tahlil qilib, unda plagiat mavjud yoki mavjud emasligini aniqlash.

Topshiriq 2. Manbalarni to‘g‘ri rasmiylashtirish

Matndagi manba ko‘rsatilmagan iqtiboslarni aniqlash va ularni akademik yozuv qoidalariga muvofiq rasmiylashtirish.

Topshiriq 3. Iqtiboslarni tahlil qilish

Berilgan matnda to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita iqtiboslardan foydalanishning to‘g‘riligini baholash.

Topshiriq 4. Plagiat turlarini farqlash

Bir nechta matn namunalarini taqqoslab, plagiatning turini aniqlash va asoslab berish.

Topshiriq 5. Plagiatning oldini olish choralarini ishlab chiqish

Plagiat aniqlangan vaziyatni tahlil qilish va uning oldini olish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

4-mavzu “Akademik vaziyatlar bo‘yicha keyslar”

Topshiriq 1. Plagiat holatini tahlil qilish

Berilgan vaziyatni tahlil qilib, plagiat mavjud yoki mavjud emasligini aniqlang va xulosangizni asoslang.

Topshiriq 2. Akademik qoidabuzarlik turini aniqlash

Keysda keltirilgan holatni tahlil qilib, qaysi turdagi akademik qoidabuzarlik sodir etilganini belgilang.

Topshiriq 3. Vaziyatga huquqiy va etik baho berish

Akademik qoidabuzarlik bilan bog‘liq vaziyatni institutning akademik halollik qoidalari asosida baholang.

Topshiriq 4. Muammoning yechimini ishlab chiqish

Berilgan akademik vaziyat bo‘yicha qoidabuzarlikning oldini olish va bartaraf etish yuzasidan amaliy tavsiyalar ishlab chiqing.

Topshiriq 5. Guruhli keys muhokamasi

Akademik halollikka oid keysni guruhda muhokama qiling, eng maqbul yechimni tanlang va uni asoslab taqdim eting.

4-modul. Akademik yozuv va manbalar bilan ishlash (6 soat)

5-mavzu “Havolalar tayyorlash”

Topshiriq 1. Matn ichidagi havolalarni rasmiylashtirish

Berilgan matn uchun akademik yozuv qoidalariga muvofiq matn ichidagi havolalarni tayyorlash.

Topshiriq 2. Iqtiboslarga havola berish

To‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita iqtiboslar uchun tegishli havolalarni rasmiylashtirish.

Topshiriq 3. Elektron manbalarga havola tayyorlash

Berilgan internet manbalari uchun bibliografik talablarga muvofiq havolalar tuzish.

Topshiriq 4. Turli manbalar uchun havolalar tayyorlash

Kitob, ilmiy maqola, dissertatsiya va konferensiya materiallari uchun havolalarni belgilangan uslubda rasmiylashtirish.

Topshiriq 5. Havolalarni tahlil qilish va tuzatish

Berilgan havolalardagi xatolarni aniqlash va ularni akademik yozuv qoidalariga muvofiq to'g'rilash.

6-mavzu “Bibliografiya shakllantirish”

Topshiriq 1. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini tuzish

Berilgan manbalar asosida bibliografiya (foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati)ni tuzish.

Topshiriq 2. Bibliografik tavsifni rasmiylashtirish

Kitob, ilmiy maqola, dissertatsiya va elektron manbalar uchun bibliografik tavsiflarni belgilangan talablarga muvofiq tayyorlash.

Topshiriq 3. Bibliografik xatolarni aniqlash

Berilgan bibliografiya ro'yxatini tahlil qilish, undagi xatolarni aniqlash va to'g'rilash.

Topshiriq 4. Turli uslublarda bibliografiya tuzish

Bir xil manbani ikki xil bibliografik uslub (masalan, APA va IEEE) asosida rasmiylashtirish.

Topshiriq 5. Bibliografiyani tahlil qilish va baholash

Tayyorlangan bibliografiya ro'yxatini to'liqlik, izchillik va rasmiylashtirish talablariga muvofiqligi nuqtai nazaridan baholash.

5-modul. Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektdan foydalanish (4 soat)

7-mavzu “AI vositalari bilan ishlash bo'yicha amaliy topshiriqlar”

Topshiriq 1. AI yordamida matn yaratish

Berilgan mavzu bo'yicha AI vositasi yordamida 200–300 so'zli matn tayyorlash va unda AI dan foydalanilganini deklaratsiya qilish.

Topshiriq 2. Akademik tekshiruv

AI tomonidan yaratilgan matndan plagiat xavfini aniqlash va uni qayta ishlash.

Topshiriq 3. Havolalar bilan ishlash

AI yordamida tayyorlangan matnga ilmiy manbalardan to'g'ri iqtibos va bibliografik havolalar qo'shish.

Topshiriq 4. Axborot xavfsizligi tahlili

Sun'iy intellekt platformasiga yuklanayotgan ma'lumotlar orasidan maxfiy va shaxsiy ma'lumotlarni ajratib ko'rsatish.

Topshiriq 5. Etik vaziyatlar tahlili

AI vositasidan foydalanish bilan bog'liq 3 ta akademik vaziyatni tahlil qilish va to'g'ri qaror variantini asoslash.

6-modul. Institutda akademik halollik tizimi (4 soat)

8-mavzu “Akademik qoidabuzarlik bo'yicha keyslarni ko'rib chiqish”

Topshiriq 1. Akademik qoidabuzarlikni aniqlash

Berilgan keysni tahlil qilib, unda qaysi turdagi akademik qoidabuzarlik sodir etilganligini aniqlash.

Topshiriq 2. Vaziyatga me'yoriy baho berish

Akademik qoidabuzarlik holatini institutning ichki me'yoriy hujjatlari asosida baholash.

Topshiriq 3. Qoidabuzarlik sabab va oqibatlarini tahlil qilish

Keysda keltirilgan holatning kelib chiqish sabablari va uning ta'lim hamda ilmiy faoliyatga ta'sirini tahlil qilish.

Topshiriq 4. Qaror loyihasini ishlab chiqish

Akademik halollik komissiyasi a'zosi sifatida berilgan vaziyat yuzasidan asoslangan xulosa va qaror loyihasini tayyorlash.

Topshiriq 5. Profilaktika choralari ishlab chiqish

Berilgan akademik qoidabuzarlikning takrorlanishini oldini olishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish.

Mustaqil ta'lim (6 soat)

Mustaqil ta'lim tinglovchilarning akademik halollik, etika va kasbiy mas'uliyat bo'yicha nazariy bilimlarini mustahkamlash hamda amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratiladi.

Mustaqil ta'lim mavzulari

1. Akademik halollik tamoyillarining oliy ta'lim tizimidagi o'рни va ahamiyatini tahlil qilish.

2. Akademik qoidabuzarliklarning turlari va ularning oldini olish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

3. Akademik yozuv qoidalari asosida ilmiy matn tayyorlash va manbalarni to'g'ri rasmiylashtirish.

4. Sun'iy intellekt vositalaridan akademik halollik tamoyillariga muvofiq foydalanish bo'yicha taqdimot tayyorlash.

5. Institutning akademik halollik, etika va kasbiy mas'uliyatga oid ichki me'yoriy hujjatlarini o'rganish va tahlil qilish.

6. Akademik qoidabuzarlik holati bo'yicha keysni tahlil qilish va uning yechimi yuzasidan xulosa tayyorlash.

Mustaqil ta'lim shakllari

- referat tayyorlash;
- taqdimot tayyorlash;
- ilmiy maqola yoki normativ hujjatlarni tahlil qilish;
- amaliy keyslarni yechish;
- esse yozish;
- mustaqil loyiha yoki hisobot tayyorlash.

O'qitish metodlari

- interfaol ma'ruzalar;
- seminar va treninglar;
- case-study;
- guruhli muhokamalar;

- rolli o‘yinlar;
- taqdimotlar;
- mustaqil topshiriqlar.

Baholash

Faoliyat	Ulushi
Amaliy topshiriqlar	30%
Keys tahlili	20%
Mustaqil ish	20%
Yakuniy test	30%

O‘quv-uslubiy ta’minot

- institutning akademik halollik bo‘yicha ichki nizomlari;
- akademik yozuv bo‘yicha uslubiy qo‘llanmalar;
- bibliografik rasmiylashtirish bo‘yicha metodik tavsiyalar;
- plagiatning oldini olishga oid o‘quv materiallari.

Kutilayotgan natijalar

Kursni muvaffaqiyatli tamomlagan tinglovchilar:

- akademik halollik tamoyillariga rioya qiladi;
- ilmiy va o‘quv ishlarini mustaqil bajaradi;
- plagiat va boshqa akademik qoidabuzarliklarning oldini oladi;
- kasbiy etika me‘yorlariga amal qiladi;
- ilmiy tadqiqotlarni halollik va shaffoflik asosida olib boradi;
- institutda sog‘lom akademik madaniyatni rivojlantirishga hissa qo‘shadi.